

**O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHNING
BUGUNGI BOSQICH XUSUSIYATLARI VA CHET DAVLATLAR
USLUBIDAN FOYDALANISH**

*Raxmatullayev Xayrullo Lutfullo o'g'li,
Abduvalliyeva Nilufar Abdurasul qizi
Shoimqulova Zarnigor*

*Chirchiq davlat pedagogika univeriseti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
22/2 guruh talabasi*

Annotatsiya: Hozirda mamlakatimizda amalga oshiraloyotgan o'zgarishlar mustaqillikdan keyingi bosh islohotlar va bozor iqtisoditiga berilgan imkoniyatlar ko'rsatilib o'tilgan va chet davlatlar uslubidab foydalanish afzaliklari.

Kalit so'zlar: Bozor iqtisodiyoti bosqichlari, diversifikatsiya, Institusional, makro va mikroiqtisodiyot.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish — an'anaviy va rejali buyruqbozlik tuzumidagi iqtisodiy munosabatlardan bozor munosabatlariga o'tish jarayoni. Bu jarayon iqtisodiy zarurat, chunki an'anaviy yoki rejali buyruqbozlik tizimlari barqaror iqtisodiy taraqqiyotni va xalq farovonligini ta'minlay olmay qoladi hamda Bozor iqtisodiyotiga o'tish orqali iqtisodiy ravnaqqa erishish yo'li tanlanadi. Tarixan Bozor iqtisodiyotiga o'tishning uch yo'lini ko'rsatish mumkin: 1) an'anaviy natural xo'jaligi iqtisodiyotidan Bozor iqtisodiyotiga o'tish ; 2) qoloq va mustamlaka harakteridagi iqtisodiyotdan Bozor iqtisodiyotiga o'tish ; 3) rejali buyruqbozlik iqtisodiyotdan Bozor iqtisodiyotiga o'tish Shunga ko'ra Bozor iqtisodiyotiga o'tish ning ilk klassik modeli; mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lgan Osiyo va Afrika mamlakatlari modeli; sobiq sotsialistik mamlakatlar modeli mavjud. Klassik model eng ko'hna model sifatida Yevropa mamlakatlariga xos bo'lgan.¹ Mamlakatimiz tarixidan ma'lumki bozor iqtisodiyotiga o'tish murakkab jarayon hisoblanib, ancha mashaqqatli yo'lni talab qildi. Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda jiddiy islohot va o'zgarishlarni talab etadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari turli vaqtlarda va turli darajadagi muvaffaqiyatlar ham bir vaqtlar bu muammoga duch kelishgan. Hozirgi kunda rivojlangan iqtisodiy davlatlar va to'laqonli bozor iqtisodiga o'tgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribasidan ba'zi misollarni ko'rib chiqadigan bo'lsak. Xitoy bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tgan davlatlardan biridir. 1978 yilda Xitoy iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga va qashshoqlikni kamaytirishga olib kelgan iqtisodiy

¹ wikipedia

islohotlarni boshladi. Xitoy xorijiy investorlarni jalb qildi va eksportni rivojlantirdi. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Chexiya bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tishning yana bir misolidir. SSSR parchalanganidan so'ng, Chexiya iqtisodiy o'sish va investitsiyalarning tezlashishiga olib kelgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Chexiya ham Evropa Ittifoqiga a'zo bo'ldi, bu esa uning iqtisodiyotini mustahkamlash va iqtisodiy istiqbollarni yaxshilashga yordam berdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda qiyinchiliklarga duch kelgan davlatga Rossiya misol bo'la oladi. Rossiya 1990-yillarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi, ammo ular samarasiz bo'lib, iqtisodiy inqiroz va inflyatsiyaga olib keldi. Biroq, Rossiya o'z iqtisodiyotini isloh qilish va yaxshilashni davom ettirmoqda. Umuman olganda, xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichma-bosqich va muayyan davlat xususiyatlariga mos ravishda amalga oshirilsa, muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu esa iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda jiddiy islohot va o'zgarishlarni amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, sarmoya jalb etishni taqozo etadi. Rivojlangan mamlakatlarning bandlik sohasida olib boruvchi siyosatlari 74 mehnat bozorining moslashuvchanlik konsepsiyasiga asoslanadi.²

O'zbekistonda 1990-yillarning boshidan boshlab markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi. Ushbu o'tish ushbu jarayonning hozirgi bosqichini tavsiflovchi bir qator muhim xususiyatlarni keltirib chiqardi. Bu erda asosiy xususiyatlardan ba'zilarini ko'rib olishimiz mumkin bo'ladi.

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish: O'zbekistonda iqtisodiyotning turli tarmoqlarini erkinlashtirishga qaratilgan qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Bu davlat korxonalarini xususiyashtirish, bozorlarni tartibga solish, chet el sarmoyasini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar yanada raqobatbardosh va ochiq biznes muhitini yaratishga intildi.

2. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish: Hukumat iqtisodiyotni paxta va tabiiy resurslarga qaramlikdan uzoqlashtirish zarurligini tan oldi. Ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm, xizmat ko'rsatish kabi boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga harakat qilindi. Ushbu diversifikatsiya tovar eksportiga qaramlikni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan.

3. Investitsion muhitni yaxshilash: O'zbekiston investitsiya muhitini yaxshilash va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TDI) jalb qilish choralarni ko'rdi. Bu byurokratik tartib-qoidalarini soddalashtirish, investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va xorijiy biznesni jalb qilish uchun turli imtiyozlar berishni o'z ichiga

² ABDURAMANOV Khamid Khudaybergenovich & IBRAGIMOV Lutfullo Ziyadullaevich, 2015. "Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan" SEA - Practical Application of

oladi. Hukumat tomonidan qulay sarmoyaviy muhit yaratishga qaratilayotgan e'tibor iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan.

4. Infratuzilmani rivojlantirish: O'zbekiston iqtisodiy o'sish va ulanishni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilmani rivojlantirishga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda. Bunga avtomobil yo'llari, temir yo'llar va aeroportlar kabi transport tarmoqlarini qurish, energetika va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish kiradi. Ushbu infratuzilma loyihalari mamlakat ichidagi aloqani yaxshilash va qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishga qaratilgan.

5. Ijtimoiy islohotlar: O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda turmush darajasi va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan ijtimoiy islohotlar ham amalga oshirildi. Bunga ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini yaxshilash, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini kengaytirish va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar kiradi. Bu ijtimoiy islohotlar iqtisodiy o'sish samarasi aholi o'rtasida kengroq bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bozor iqtisodiyotiga o'tish uzluksiz jarayon bo'lib, O'zbekiston bu yo'lda qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Hukumatning iqtisodiy islohotlarga intilishi va investitsiyalarni jalb etishga e'tibor qaratilishi O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining kelajakdagi yo'nalishini shakllantirishi kutilmoqda. Moliyaviy-iqtisodiy globallashtirish va jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat sharoitida investitsiyalarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi har bir korporativ tuzilma nafaqat milliy moliya bozoridan, balki xalqaro moliya bozorlaridan ham kapital jalb qilish orqali moliyaviy ta'minot masalasini hal qilishga va faoliyatini xalqaro darajada kengaytirishga intilmoqda. Mulkchilik shakllarining turli-tumanligi va ularning huquqiy jihatdan tengligi milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlari qaror topishining eng muhim sharti hisoblanadi. Buning natijasida tobora keng ko'lamda faoliyat yuritayotgan korporativ tuzilmalarni samarali boshqarish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining yanada rivojlanishini ta'minlash samarali moliyaviy menejment tizimini joriy etishni taqozo etadi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha ishlab chiqarish ob'ektlari aksiyadorlik kompaniyalari prinsipi bo'yicha tashkil etilgan, ammo ular o'z maqomiga qay darajada mos holda faoliyat yuritmoqda va o'z huquqlaridan foydalanmoqda degan savolni o'zimizga berib ko'raylik. Aksiyadorlik kompaniyalari o'zlarining bozor munosabatlariga mos maqomiga muvofiq faoliyat yuritishi uchun yana qanday mexanizmlarni harakatga kelitirish zarur. Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni hal etishda modernizatsiya qilinayotgan yirik aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni tashkil etish tizimini takomillashtirish muhim rol o'ynaydi. Milliy iqtisodiyotimizda bozor infratuzilmasining yirik korporativ bo'g'inlaridan hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlanib borayotganligi

mazkur tuzilmalar amaliyotiga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, ularning keng qamrovli faoliyatini aniq strategik maqsad atrofida birlashtirish chora-tadbirlarini jadal ravishda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni tashkil etish yakka tartibdagi va jamoa shaklidagi sub`ektlar faoliyatini umumlashtirgan shaklini ifodalaydi. Bu jarayon ishlab chiqarishni boshqarishning yangi mazmundagi mahsuli bo`lib, ijtimoiy transformatsiyalashgan, hozirgi zamon munosabatlarni vujudga keltiruvchi murakkab munosabatlar jarayonini ifoda etadi va bozor iqtisodiyoti talablariga to`liq javob beradi, deb hisoblash mumkin. Agar ilgari korxonalarining xo`jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug`ullangan bo`lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko`rsatilgan tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamoa tashkilotlari, aksionerlar, ta'minlovchilar, iste'molchilar va boshqa organlar va tashkilotlar ham shug`ullanishyapti. Bu holat moliyaviy tahlil, jumladan, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar qo`ymoqda.

Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida korxonalar xo`jalik faoliyatini tahlil qilish, jumladan, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishning uslubiy masalalari markazda - butun ittifoq organlari tomonidan ishlab chiqarilardi, muammolari echilardi va ittifoqdosh respublikalarga foydalanish uchun jo`natilar edi. Sobiq ittifoqning tarqatilishi tufayli ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlatlarga aylandi, ulardan har bittasi bozor munosabatlariga o`tish uchun o`z yo`lini tanlab, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni davom ettirib, bozor iqtisodiyotini shakllantirmoqda. Ular orasida O`zbekiston ham o`zining bozor iqtisodiyotiga o`tish modelini ishlab chiqib, xalq xo`jaligini bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirgan holda ijobiy natijalarni qo`lga kiritib kelayotir. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinyapti. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo`nalishlaridan biri - bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarining xo`jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish katta rol o`ynaydi. Chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu yo`nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi: - barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi; - bozorga xorijiy raqobatchilar ham kirishi uchun imkon berilishi; - kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvatlash va tarmoqqa kirishidagi to'siqlarni pasaytirish; - tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyosatini tartibga solish va boshqalar.

1. Institusional o'zgarishlar. Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi: - mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish; -

bozor infratuzilmasini (tijorat banklari, tovar va fond birjalari, investisiya fondlari va h.k.) shakllantirish; - iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish; - bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

2. Tarkibiy o'zgarishlar. Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbatda xalq xo'jaligi va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Tqqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy maqsad - ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qodir talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishini rivojlantirishdan iborat.

3. Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish. Aslini olganda, bu jarayon tizimiy islohotlar qatoriga kir-maydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o'tkazilib turadi. Bu yo'nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi, eng awalo va kuchli rav-ishda moliyaviy sohada, ayniqsa, yuqori inflyasiya shaklida namoyon bo'ladi. Inflyasiyaning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bozor munosabatlarining normal qaror topishiga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o'tish davri iqtisodiyoti uchun o'ta muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi. 6. Bozor xo'jaligiga mos bo'lgan aholini ijtimoiy himoya-lash tizimini shakllantirish. Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bozor tizimining ko'rsatib o'tilgan asosiy unsurlarini shakllanishining yakuniga yetishi o'tish davri tugaganligidan darak beradi.

Foydalangan adabiyotlar;

- 1.wicipedia
- 2.ABDURAMANOV Khamid Khudaybergenovich & IBRAGIMOV Lutfullo .Ziyadullaevich, 2015. "Regional Characteristics Of Demographic Development In The Republic Of Uzbekistan" SEA - Practical Application of
- 3.I.A. Karimov. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: "O'zbekiston", 1992.
- 4.Bozor iqtisodiy,sharoitdaxo'jaliksub'yektlarning moliyaviy holatini o'rganishning ahamiyati.Xoliqulov Anvar Nematovich
- 5.Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy menejmenti tashkil etish-samaradorligi-oshirishmasalalari. Shernayev Akbar Aqmirzay
6. Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2023, 212 bet